Y.Abdullayev bir necha darslik, o'quv qo'llanmasi, yuzdan ortiq maqolalar muallifidir. “Sintaksis va punktuatsiya mashqlari to'plami” (Z.Ma'rufov bilan hamkorlikda) 1952-1956 yillarda besh marta nashr hilingan. 5-6- va 7-8-sinflar uchun “O'zbek tili darsligi” (A.Borovkov, Z.Ma'rufov, T.Shermuhamedov bilan hamkorlikda) 1957- yildan 2002- yilgacha amalda bo'ldi.

“Diktantlar to'plami” (Sh.Koyenov bilan hamkorlikda, 2- nashri) 1957- va 1966-yillarda, “Imlo lug'ati” (O'rta maktab o'qituvchilari uchun, M.Omilxonova va S.Zufarova bilan hamkorlikda) 1970- yilda nashr qilingan.

Y.Abdullayev bir necha marta “Faxriy yorliq”lar va “Shuhrat” medali bilan taqdirlangan.

QOSIMOVA KARIMA

Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent K.Qosimova 1923-yil Toshkent shahrida tug'ildi. 1940- yilda maktabni tugatib, mahalla xotin-qizlar klubida tashkilotchi bo'lib ishladi. 1942- yilda Toshken davlat pedagogika instituti qoshida tashkil etilgan o'qituvchilar tayyorlash kursini bitirdi. 1952-1955- yillarda Toshken davlat pedagogika instituti aspiranturasida tahsil oldi. 1942-1952- yillarda maktabda o'qituvchilik faoliyati bilan shug'ullandi. 1956-1959- yillarda institutning O'zbek tilshunosligi kafedrasida ishladi. 1960-1964- yillar mobaynida Qori Niyoziy nomidagi Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot institutida faoliyat ko'rsatdi. 1964-1990- yillarda Toshken davlat pedagogika institutida ishladi.

K.Qosimova hammualligida 4- sinf uchun “O'zbek tili darsligi” (1963) (hamkorlikda), 2- sinf uchun “Ona tili darsligi” (1996) (hamkorlikda), 5- sinfi uchun “Ona tili darsligi” (1997, 1998) nashr qilingan.

K.Qosimova “O'zbekiston halq ta'limi a'lochisi” ko'krak nishoni, “Shuhrat” medali bilan taqdirlangan.

SAYFULLAYEV RAUF

Filologiya fanlari doktori, professor R.Sayfullayev 1924-yili Buxoro (Navoiy) viloyati Qiziltepa tumanida tavallud topgan. 1940-44 yillarda Buxoro davlat pedagogika institutida, 1947-49 yillarda Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston davlat universitetida tahsil olgan. O'z faoliyatini o'rta maktabda o'qituvchilikdan boshlagan R.Sayfullayev Buxoro davlat pedagogika institutida assistent, 1960 yildan boshlab O'zbekiston pedagogika ilmiy-tekshirish institutida katta ilmiy xodim, bo'lim boshlig'i bo'lib ishladi. Olim maktab ona tili ta'limi uchun ko'plab ilmiy, ilmiy-uslubiy, uslubiy ishlar yaratgan. Uning 50 dan ortiq darslik, qo'llanma, risolalari chop etilgan. 1993 yilda “O'zbek tili” darsligi (kechki maktablarning 8-9 sinflari uchun; G'.Abdurahmonov, H.Rustamovlar bilan hammualliflikda), 1995 yilda mazkur olimlar bilan hamkorlikda yaratilgan “Ona

tili” darsligi (kechki maktablarning X-XII sinflari uchun) “O’qituvchi” nashriyotida nashr qilingan.

Xalq maorifi a’lochisi (1976) R.Sayfullayev “Mehnat veterani” (1984), “Qori Niyoziy” (1986), “Shuhrat” medallari (1994) bilan taqdirlangan.

R.Sayfullayev 2002 yilda vafot etgan.

SAYFULLAYEVA RA’NO

Filologiya fanlari doktori, professor R.Sayfullayeva 1948-yili Buxoro viloyatida tavallud topgan. 1972-yili ToshDUning filologiya fakultetini tamomlagan. 1979-yildan Mirzo Ulug’bek nomidagi O’zbekiston Milliy universiteti O’zbek tilshunosligi kafedrasida faoliyat ko’rsatib keladi. Bir necha yil O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasida bo’lim bo’shlig’i vazifazida ishladi.

Olima o’zbek tilidagi qo’shma gaplarning substansial tadqiqi bilan shug’ullanib kelmoqda. Uning hammualliflikda yaratgan oliy o’quv yurtlari uchun “Hozirgi o’zbek adabiy tili”, o’rta ta’lim 8-9 sinflari uchun “Ona tili” darsliklari zamonaviy tipdagi qo’llanmalar sifatida amalda.

RUSTAMOV ALIBEK

Taniqli tilshunos, filologiya fanlari doktori, professor, O’zFA akademigi A.Rustamov 1931 yilda Toshkent viloyatida tavallud topgan. U o’zbek tili tarixi, tilning badiiy-estetik vazifasi, tilshunoslikning umumiy masalalarini hal qilishda barakali faoliyat ko’rsatib kelmoqda. Xususan, «Navoiyning badiiy mahorati» (1979), «Qofiya nima?» (1975), «Mahmud Zamaxshariy» (1971), akademik G’.Abdurahmonov bilan hamkorlikda yozgan «Alisher Navoiy asarlarining grammatik xususiyatlari» asarlari alohida ahamiyatga ega.

Akademik A.Rustamov oliy o’quv yurtlarida filologiya ta’limini yuksaltirish sohasida tinimsiz mehnat qilmoqda. Jumladan, G’.Abdurahmonov bilan hamkorlikda yozgan «Qadimgi turkiy til» (1982) o’quv qo’llanmasi qadimgi turkiy manbalarni o’qish va ularni tahlil etish bo’yicha talabalarning doimiy hamrohiga aylanib qoldi.

SOBIROV ABDULHAY

Andijon davlat universiteti Tilshunoslik kafedrasida professori, filologiya fanlari doktori Abdulhay Sobirov 1957- yilning 15- iyunida Andijon viloyatining Xo’jaobod tumanida tavallud topgan. U tilshunos sifatida o’zbek tili terminologiyasi, leksikologiyasi va leksikografiyasi sohalarida faoliyat ko’rsatib kelmoqda. A.Sobirov tomonidan chop ettirilgan "O’zbek tili faol so’zlarining izohli lug’ati" (1999, hammualif), "O’zbek tilining leksik sathini sistemalar sistemasi tamoyili asosida tadqiq etish" (2004) kabi asarlar bunga misol bo’la oladi.

A.Sobirov umumiy o’rta ta’lim va akademik litsey o’quvchilari uchun professorlar A.Nurmonov, M.Mahmudovlar bilan hammualliflikda darsliklarning yangi avlodini yaratish ishiga munosib hissa qo’shib kelmoqda. 5-, 6-, 7-, 9-sinflar uchun "Ona tili" (2004, 2005, 2006), "O’qituvchi kitobi" (2004, 2005,

2006), akademik litseylarning 1-3- bosqich talabalari uchun "Hozirgi o'zbek adabiy tili" (2001, 2002, 2003) darsliklarining yuzaga kelishida xizmatlari katta

G'OZI OLIM YUNUSOV

G'ozim Olim Yunusov 1893- yilda Toshkentda xizmatchi oilasida tug'ildi. Boshlang'ich ma'lumotni ham shu yerda olgach, 1908- yilda Qohiraga borib o'qidi, 1914- yildan esa Turkiya universitetida tahsil ola boshladi.

Tilshunos dastlab 1923- yilda chet eldan qaytgach, jamoat ishlarida ishlab, tarjima bilan ham shug'ullandi. Keyinchalik Samarqandda Til va terminologiya komitetida faoliyat ko'rsatdi va filologiya fakultetida dars berdi. 1931- yili Toshkentga qaytdi. U yerda ham filologiya fakultetida ishlab, tilshunoslik seksiyasini boshqardi.

G'.O.Yunusovga 1930- yildayoq Sharqshunoslik instituti tomonidan professorlik unvoni berilgan.

G'.O.Yunusovning ilmiy-pedagogik faoliyati ko'p qirrali va sarmahsul bo'lgan. Buni olimning tilshunoslik, adabiyotshunoslik, folkloristika, etnografiya, tarix, arxeologiya, huquqshunoslik, falsafa kabi sohalarda qalam tebratganidan bilish mumkin. U juda ko'p tillarni bilgan.

Olim o'z xalqining hayoti, ayniqsa, tili, yozma va og'zaki adabiyoti bo'yicha ko'p materiallar to'plashga muvassar bo'lgan, shu materiallar asosida "O'zbek lahjalarini tasnifda bir tajriba" (1936), "O'zbek urug'laridan qatag'onlar va ularning tili" (1930), "O'zbek tili grammatikasi" (1936, qo'lyozma) kabi asarlar yaratgan. 1922- yilda "Alpomish" dostonini ham birinchi bo'lib G'.O.Yunusov yozib olgan.

Atoqli olim qizqa, lekin sarmazmun hayot ko'rdi. Uning boy lingvistik, folklorshunoslik va etnografik merosi o'zbek milliy madaniyati, tili xazinasidan munosib o'rin olgan.

G'.O.Yunusov 1939- yilda vafot etdi.

SHOABDURAHMONOV SHONAZAR

Filologiya fanlari doktori, professor, O'zFA akademigi Sh.Shoabdurahmonov 1924- yilda Toshkentda tavallud topgan.. O'zbek tili fonetikasi, o'zbek tilining badiiy-estetik vazifasi, leksikografiyasi, morfologiyasi, dialektologiyasi yuzasidan qator salmoqli asarlar yaratib, tilshunosligimiz rivoji uchun munosib hissasini qo'shdi. Jumladan, «O'zbek tilida yordamchi so'zlar» (1953), «Fonetika. O'zbek tili fonetikasiga doir ba'zi masalalar» (1953), «O'zbek tilida punktuatsiya» (1955), «O'zbek adabiy tili va o'zbek xalq shevalari» (1962) kabi asarlari o'zbek tilshunosligining rivoji uchun munosib hissa bo'lib qo'shildi.

Akademik Sh.Shoabdurahmonov o'rta va oliy ta'limda o'zbek tili va tilshunosligini o'qitishni takomillashtirish borasida ham samarali mehnat qildi. Ayniqsa, uning V.Reshetov bilan hamkorlikda oliy maktablarning o'zbek filologiyasi fakulteti talabalari uchun «O'zbek dialektologiyasi» (1962, 1969, 1978) darsligi, shuningdek, o'rta maktablarning IX sinfi uchun hammualliflikda yozilgan «O'zbek tili» (1977, 1978, 1980, 1982) hamda oliy o'quv yurtlari uchun

yaratilgan «Hozirgi o'zbek adabiy tili. I qism» (1980) darsliklari alohida ahamiyatga ega.

G'ULOMOV AYYUB

O'zbek formal tilshunosligining asoschisi A.G'ulomov 1914- yilda Toshkentda tavallud topgan. U «O'zbek tilida aniqlovchilar» (1940), «O'zbek tilida kelishiklar» (1940), «O'zbek tilida ko'plik kategoriyasi» (1944), «O'zbek tilida urg'u» (1947), «Sodda gap sintaksisi» (1948), «Sodda gap» (1955), «O'zbek tilida tarixiy so'z yasalish muammolari» (1955), «Fe'l» (1957) kabi qator asarlari bilan o'zbek ilmiy tilshunosligining shakllanishi va rivojlanishi uchun xizmat qildi. Uning rahbarligida o'rta maktablarning V, VI, IX sinflari uchun yozilgan ona tili darsligi yigirma yilga yaqin yosh avlodga til ta'limini singdirishga xizmat qildi.

Respublikamizning barcha ona tili va adabiyot muallimlari A.G'ulomov tomonidan oliy o'quv yurtlarining o'zbek filologiyasi fakultetlari uchun yozilgan «Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis» kitobidan o'zbek tili sintaksisining sir-asrorlarini o'rgangan va hanuz o'rganib kelmoqda. Uning ilmiy xulosalari, nazariy qarashlari o'zbek tilshunosligining hozirgi taraqqiyoti uchun ham asos bo'lib xizmat qilmoqda.

A.G'ulomov 1984- yilda vafot etgan.

BUXORO TILSHUNOS OLIMLARI

Ne'matov Hamid G'ulomovich

1941-yil 22-noyabrda Buxoro shahridagi Modarixon guzarida tug'ilgan. Filologiya fanlari nomzodi (1970), filologiya fanlari doktori (1978). Leningrad davlat universitetining sharqshunoslik fakultetida tahsil olgan. 1982-yildan 2004-yilgacha o'zbek tilshunosligi kafedrasini mudiri. 1970-yilda «Qoshg'ariy "Devon" materiallari asosida fe'l morfologiyasi» mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini, 1978-yilda «XI-XII asr sharqiy turkcha morfologiyasi» mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Hamid Ne'matov uchinchi avlod o'zbek tilshunoslarning sardori, iste'dodli olim, o'tkir nazariyotchi va amaliyotchi, o'zbek tilshunosligining eng yetuk vakillaridan biridir. Ustozlari mashhur turkiyshunos akademik A.N.Kononov va professor S.N.Ivanovlar edi. 1967-1970 yillarda Sankt-Peterburg universitetining aspiranturasida bilim oldi. 1970-yilda akad. A.N.Kononov rahbarligida ««Devoni Koshg'ariy» materiallari asosida fe'l morfologiyasi» mavzusida nomzodlik, 1978-yilda «Морфология восточно-тюркского языка XI – XII в.в» mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi. 1982-yilda professor unvoni berildi. Prof. H.Ne'matov 1991-yildan shu kungacha amalda bo'lgan «O'zbek tili doimiy anjumani» (O'TDA)ning asoschisi, tashkilotchisi va raisi hamdir. U ona tili ta'limi bo'yicha amalda bo'lgan qator dastur, darslik, qo'llanma larning muallifidir. H. Ne'matov o'zbek tilshunosligida ustozlari boshlagan til va nutqni farqlash g'oyasini davom ettirdi va o'zbek substansial tilshunosligini yaratdi, ilmiy izlanish va tadqiqotlarda dialektik falsafaga - uning qonun va kategoriyalariga asoslandi. Ustoz til hodisalari mohiyatini ochishga asoslangan maktab yarata oldi. Olim nafaqat tilshunos sifatida, balki filolog, turkolog sifatida respublikada va hamdo'stlik davlatlarida, Turkiya, Rossiyada ham taniqlidir. U islom falsafasini ham mukammal biluvchi shaxsdir.

Asosiy ishlari: Qarang: Mohiyatga intilgan olim. Buxoro. 2001.

Ne'matov H., Hamroeva SH. «Lingvistik tadqiqot metodikasi, metodologiyasi, metodlari». Buxoro, 2005. 4,5 b.t.

Ne'matov H., Baqoxo'jaeva M. O'zbek tilshunosligi kafedrasini 60 yoshda. "Ilm-u adab jabhasida 60 yil (kafedraning 60 yilligiga bag'ishlangan ilmiy to'plam)" Buxoro, "Universitet", 2005. 4-9-betlar.

Ne'matov H., Abuzalova M. Navbatdagi vazifalar. "Ilm-u adab jabhasida 60 yil (kafedraning 60 yilligiga bag'ishlangan ilmiy to'plam)" Buxoro, "Universitet", 2005. 31-33-betlar.

Ne'matov H. «Ona tili»ning o'quv fanlari tizimidagi o'rni. «Til - nutq dixotomiyasi» mavzusiga bag'ishlangan xalqaro ilmiy anjuman materiallari. Samarqand, CHet tillar instituti, 2005.

Ne'matov H. «Ona tili»ning o'quv fanlari tizimidagi mavqei. O'zbek tili doimiy 8-anjumani materiallari. Toshkent, 2005, 47-48-betlar.

G'ULOMOV ASKAR

Askar G'ulomov 1940- yil 15-dekabrda Buxoro shahrida tavallud topgan, pedagogika fanlari doktori, Buxoro universiteti O'zbek tilshunosligi kafedrası professori, o'zbek tilini umumiy ta'lim tizimida o'qitish bo'yicha respublikamizda birinchi fan doktori. 1978- yilda nomzodlik dissertasiyasini mashhur tadrishi T.Salimov rahbarligida "IV sinfda ona tilini o'qitish jarayonida o'quvchilarning mustaqil ishlari" mavzusiga yoqlagandayoq olim ona tili ta'limining sovet davrida mutlaqlashtirilgan ko'rgazmali bayon (retroskopik, reproduktiv) ta'lim usuli o'quvchida ijodiylikni bo'g'ishi, unda mustaqil fikrlash malakalarining shaklanishini chegaralashini sezdi. Shuning uchun olimning navbatdagi 1991- yilda himoya qilgan doktorlik dissertatsiyasi – "Ona tili mashg'ulotlarida o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatini oshirish" mavzusidagi tadqiqoti – mustaqil fikrlovchi ijodiy tafakkur sohibini yetishtirish uchun ona tili ta'limi maqsadi, mazmuni va usulini yangilash, buning uchun tayanch bo'g'ida ona tili ta'limi kognitiv-pragmatik (o'sha davrda zamona zayli bilan induktiv deb atalgan) ta'lim usuliga ko'chirish zaruratini ilmiy-nazariy asoslashga bag'ishlandi. "Ta'lim to'grisida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"ning hayotga tatbiqi jarayonida umumiy o'rta ta'lim tizimida ona tilini o'qitish mana shu yo'nalishda yangilandi. A.G'ulomov ona tili o'quv fanidan 1999-yilda qabul qilingan umumiy o'rta ta'lim davlat ta'lim standartlari talablariga muvofiq ilk dastur, shu dastur asosida tuzilgan va 1999-2004- yillarda amaliyotda bo'lgan darsliklarining yaratilishi va ommalashishida faol ishtirok etdi. Olim "Ona tilini o'qitish jarayonida faollik tamoyilini amalga oshirishning nazariy asoslari" (-Toshkent: Fan, 1989), "Ona tili o'qitish prinsiplari va metodlari" (-Toshkent: O'qituvchi, 1992), "Maktabda til sathlarini o'zaro bog'lab o'rganish" (-Toshkent, 1992) kabi o'ndan ortiq ilmiy-metodik kitoblarning, 200 yaqin ilmiy maqollarning muallifi.

A.G'ulomov qoraqalpoq maktablarida davlat tili – o'zbek tilini o'qitishning yangi maqsadi, mazmuni va usulini belgilashga, shu yo'nalishda dastur, darsliklar yaratishga va bu sohani yetuk tadrishchilar bilan ta'linlashga ulkan hissa qo'shdi. Qoraqalpoq maktablari uchun uning rahbarligida yaratilgan "O'zbek tili" darsliklari hozir ham amalda.

A.G'ulomov 2003- yilda vafot etdi.

Qilichev Ergash Rajabovich

1940-yilning 26-martida Vobkent tumani Xargo'sh qishlog'ida tug'ilgan. Filologiya fanlari nomzodi (1969), O'zbekiston xalq maorifi a'lochisi (1974), dotsent (1973), professor (1991). 1958-1963-yillarda Samarqand davlat universiteti filologiya fakultetida tahsil olgan. 1965-yildan hozirgacha BuxDU o'zbek tilshunosligi kafedrasining o'qituvchisi bo'lib ishlab kelmoqda. 1969-yilda «Sadridin Ayniy asarlarida arxaizm va istorizmlar» mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan.

Asosiy ishlari: Professor E.Qilichyevga armug'on. Bibliografik ma'lumotlar. Buxoro. 2000.Qilichev E.R. «Hozirgi o'zbek adabiy tili». B., 2005. 5 b.t.

Qilichyev E. Uslubiy ma'no va uning ifodalanishi. "Ilm-u adab jabhasida 60 yil (kafedraning 60 yilligiga bag'ishlangan ilmiy to'plam)" Buxoro, "Universitet", 2005. 53-55-betlar.

Shukrullayev Nasrullo Shukrullayevich

1942-yil 30-yanvarda Buxoro viloyatining Qorako'l tumanida tug'ilgan. Pedagogika fanlari nomzodi (1976), dotsent (1981), BuxDPI ning tarix-filologiya fakultetini tugatgan. 1963-1965-yillarda Qorako'l tumanida o'qituvchi bo'lib ishlagan. 1966-1970-yillarda o'qituvchi, Qorako'l tumani XTB usulshunosi bo'lgan. 1970-1973-yillarda O'zPFITIda aspiranturada o'qigan. 1974-yildan BuxDUda ishlaydi. O'zbek tilshunosligi kafedrasida dotsenti. 1975-yilda «O'zbek maktablarining 8-sinf ona tili darslarida qo'shma gap sintaksisini o'rgatishda o'quvchilar nutqini o'stirish» mavzusida nomzodlik dissertatsiyasi yoqlagan.

Asosiy ishlari: Hozirgi o'zbek adabiy tilida sintagma masalasiga doir ayrim mulohazalar (hamkor). «O'TA», 1964,6.

O'quvchilar nutqini qo'shma gaplar bilan boyitishda bog'lanishli tekstlar va sxemalardan foydalanish. (To'plam: «Ona tili o'qitish samaradorligini oshirish») T., «O'qituvchi», 1973.

7- va 8-sinfda ona tili darslari (hamkor). T., «O'qituvchi», 1982.

Qaratqish-qaralmish aloqasi haqida ayrim mulohazalar. (To'plam: «O'zbek tilini sinxron o'rganish masalalari») T., 1987.

Darsliklarni mukammallashtiraylik (hamkor). «Sovet maktabi», 1989, 11.

Mukammal qoidalar, pishiq qo'llanmalar, asosli takliflar - savodxonlik garovi (hamkor). «Til va adabiyot ta'limi», 1999, 5-6.

Ruscha baynalminal so'zlar imlosidagi ba'zi holatlar. (To'plam: «O'zbek tilshunosligi muammolari») T., 2003.

Shukrullayev N. Sintaktik tahlil haqida o'ylar. "Ilm-u adab jabhasida 60 yil (kafedraning 60 yilligiga bag'ishlangan ilmiy to'plam)" Buxoro, "Universitet", 2005. 78-82-betlar.

Shukrullayev N. elga nasixat yoyayotgan shoir. «Mahtumquli Firog'iy ibratlari» maqolalar to'plami. Buxoro, 2005, 89-91-betlar.

Shukrullaev N. Til ummoni darg'asi. «Pedagogik mahorat» jurnali. 2005, 2-son, 48-50-betlar.

Qosimova Nazira Azizovna

1952-yilda Buxoro shahrida tug'ilgan. Pedagogika fanlari nomzodi (1998). 1968-1973-yillarda BDPIning o'zbek tili va adabiyoti fakultetida o'qigan. 1998-yilda "O'quvchilar nutqini so'zning ma'nodoshlari bilan boyitish" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan.

Asosiy ishlari: O'rta maktablarning 5-sinfida «Lesikologiya» bo'limini o'rganishda sinonim so'zlar ustida ishlash. Metodik qo'llanma. T., 1996.

Hozirgi o'zbek adabiy tili. Akademik litsey o'quvchilari uchun darslik (hamkor). T., «O'qituvchi», 2002.

Qosimova N. O'zbek tilshunosligi kafedrasida xodimlari haqida ma'lumot. "Ilm-u adab jabhasida 60 yil (kafedraning 60 yilligiga bag'ishlangan ilmiy to'plam)" Buxoro, "Universitet", 2005. 9-22-betlar.

Baqoxo'jayeva Muhiba Barnoxo'jayevna

1977-yildan beri o'zbek tilshunosligi kafedrasida a'zosi. 1954-yilda Buxoro shahrida tug'ilgan. 1971-1976-yillarda BDPIning til va adabiyot fakultetini tugatgan.

Asosiy ishlari: o'ndan ortiq maqolalari turli to'plamlarda chop etilgan.

Sharipova Mavluda Boymuradovna

1958-yil 4-oktabrda Buxoro shahrida tug'ilgan. 1983-yilda Toshkent davlat universitetini tugatgan. 1990-yildan boshlab BDPI fakultetlararo o'zbek tili kafedrasida o'qituvchisi, 1994-yildan o'zbek tilshunosligi kafedrasida o'qituvchi bo'lib ishlagan. Hozirda "Navoiy badiiy asarlaridagi literonimlarning leksik-semantik va lingvopoetik tadqiqi" mavzusida ilmiy izlanish olib bormoqda.

Asosiy ishlari: Harfiy san'atlar xususida. O'TA, 2004, 3-son.

Tojik-arabiy yozuv bilan aloqador san'at. "Buxoro universiteti ilmiy axborotlari", 2004.

Sharipova M. Alisher Navoiy g'azaliyotida tajnisi tomm san'atining qo'llanilishi. "Ilm-u adab jabhasida 60 yil (kafedraning 60 yilligiga bag'ishlangan ilmiy to'plam)" Buxoro, "Universitet", 2005. 73-75-betlar.

Sharipova M. Alisher Navoiy g'azallarida qalb san'ati. «O'zbek tili va adabiyoti» jurnali, 2005, 1-son, 33-36-betlar.

Saidov Yoqub Siddiqovich

1960-yilning 1-fevralida Buxoro viloyati Romitan tumanining Shilong'u qishlog'ida tug'ilgan. O'zbek tilshunosligi kafedrasida o'qituvchisi (1990), filologiya fanlari nomzodi (2001). 1985-1990-yillarda ToshDUNing o'zbek filologiyasi fakultetida tahsil olgan. 1991-1994-yillarda kafedra huzuridagi aspiranturada o'qigan. 2001-yilda «Fitrat badiiy asarlari leksikasi» mavzusida nomzodlik

dissertatsiyasini himoya qilgan. 2019- yilda «Jadid badiiy asarlari leksikasi» mavzusida filologiya fanlari bo'yicha fan doktori (DSc) dissertatsiyasini yoqladi.

Asosiy ishlari: Fitrat asarlaridagi qadimgi turkiy so'zlar // "O'zbek tili va adabiyoti", 2000, 5-son.

Mahorati ustod S.Ayny dar istifodai affikshoi forsiyu tojiki // Shashnomai Ayny. Jildi IX, Dushanbe. 2002.

Fitratning «Abulfayzxon» asari tili haqida // "Til va adabiyot ta'limi". 2002, 3-son.

Fitratning imlo masalasiga munosabati // "Buxoro universiteti ilmiy axborotlari", 2000, 1-son.

Ajziy asarlarida o'g'uz unsurlari // "Buxoro universiteti ilmiy axborotlari", 2004, 1-son.

Saidov YO. «O'zbek tili tarixi». I qism Buxoro, 2005. 4 b.t.

Saidov YO. «O'zbek tili tarixi». II qism. Buxoro, 2005. 4 b.t.

Saidov Yo. Cho'lpon maqolalarida til masalasi. "Ilm-u adab jabhasida 60 yil (kafedraning 60 yilligiga bag'ishlangan ilmiy to'plam)" Buxoro, "Universitet", 2005. 61-64-betlar.

Saidov Yo. Behbudiyning «Til maqolasi» xususida. «Pedagogik mahorat» jurnali, 2005, 2-son, 76-82-betlar.

Nazarova Saida Ahmedjonovna

1966-yilning 7-oktabrida Buxoro shahrida tug'ilgan. 1983-88-yillarda Toshkent davlat universitetining o'zbek filologiyasi fakultetida tahsil olgan. 1988-yildan hozirga qadar kafedrada o'qituvshi va katta o'qituvshi lavozimlarida ishlab kelmoqda. 1990-1994-yillar mobaynida kafedra huzuridagi aspiranturada sirdan o'qigan. 1997-yilda «Birikmalarda so'zlarning erkin bog'lanish omillari» mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. 2002-yilning dekabridan boshlab kafedra doktoranti sifatida «O'zbek tilida so'z birikmalarining formal-funksional talqini» mavzusida doktorlik dissertatsiyasi ustida ish olib bormoqda.

Asosiy ishlari: So'z birikmalarining formal-funksional tahlil muammolari // «O'zbek tili va adabiyoti», 2002, 6-son, (55-57-b.).

Nutq sintaksisi va lisoniy sintaksis // "Tilshunoslikning dolzarb masalalari". T., «Universitet», 2002. (40-42-b.).

Bir lisoniy-sintaktik qurilish qolipi xususida // «Til va adabiyot ta'limi», 2003, 4-son, (40-42-b.).

[Jins-tur] munosabatini bildirgan so'z birikmalari // «O'zbek tili va adabiyoti», 2004, 3-son, (69-71-b.).

Abuzalova Mehriniso Qodirovna

1967-yilda Buxoro shahrida tug'ilgan. O'zbek tilshunosligi kafedrasida o'qituvchisi (1988), filologiya fanlari nomzodi (1994), dotsent (2004), kafedra mudiri (2004). BDPIn 1988-yilda tamomlagan. 1994-yilda «O'zbek tilida sodda gapning eng kichik qurilish qolipi» mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan. 2019-yil "Substansial morfologiya, valentlik va sintaktik qurilma" mavzusida filologiya fanlari bo'yicha fan doktori (DSc) dissertatsiyasini yoqlagan.

Asosiy ishlari: Yuza fe'l qaysi lug'atlarda izohlangan. O`TA., 2002, 6-son.
Egali va egasiz gaplar xususida. TAT, 2002, 6-son.

Hozirgi o'zbek tili. Morfologiya. O'quv-usuliy qo'llanma. B., 2004.

Abuzalova M., Yo'ldosheva D. «Tilshunoslikka kirish». Toshkent, «Universitet», 2005. 5,5 b.t.

Abuzalova M. Substantsial morfologiya va gap bulaklari ierarxiyasi. «Buxoro universiteti ilmiy axborotlar» jurnali, 2005, 2-son, 24-27-betlar.

Abuzalova M., Shirinova N. O'zbek va ingliz tillari tizimida payt ma'nosining ifodalanish usullari. «Ilm-u adab jabhasida 60 yil (kafedraning 60 yilligiga bag'ishlangan ilmiy to'plam)» Buxoro, «Universitet», 2005. 82-84-b.

Abuzalova M., Jo'rayeva Z. The typology of separatinf degrees of the compound sentences in uzbek and English languages. «Ilm-u adab jabhasida 60 yil (kafedraning 60 yilligiga bag'ishlangan ilmiy to'plam)» Buxoro, «Universitet», 2005. 85-87-b.

Abuzalova M., Shodiyeva Sh. «Gap bo'laklari darajalanishi». «Til - nutq dixotomiyasi» mavzusiga bag'ishlangan xalqaro ilmiy anjuman materiallari. Samarqand, Chet tillar instituti, 2005.

Ayni kunlarda «Substantsional morfologiya, valentlik va gap qurilishi talqini» mavzuida doktorlik dissertatsiyasi ustida ishlamoqda.

Jo'rayeva Bibish Muhsinovna

1967-yilda Buxoro viloyati Romitan tumanida tug'ilgan. Filologiya fanlari doktori (2019), filologiya fanlari nomzodi (2002). 1985-1990-yillarda BDPning filologiya fakultetida o'qigan. 1990-yildan o'zbek tilshunosligi kafedrasida a'zosi. «Maqollarning til/nutq ixtilofidagi o'rni va ma'naviy-uslubiy qo'llanilishi» mavzusida 2002-yilda nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan.

Asosiy ishlari: Maqol va matal orasidagi munosabat. TAT, 2001, 2-son.

Sotsiolingvistika. Ma'ruza matnlari. -B., 2004.

Jo'raeva B. Maqollarning uzzual uslubiy vazifalari. «Ilm-u adab jabhasida 60 yil (kafedraning 60 yilligiga bag'ishlangan ilmiy to'plam)» Buxoro, «Universitet», 2005. 45-48-betlar.

Yuldosheva Dilorom Ne'matovna

1968-yil Navoiy viloyati Navbahor tumanida tug'ilgan. 1987-1993-yillarda NavoiyDPI o'zbek tili va adabiyoti fakultetida, 2000-2002-yillarda BuxDU o'zbek tilshunosligi kafedrasida huzuridagi kunduzgi bo'lim aspiranturasida tahsil olgan.

Navoiy viloyati Navbahor tumanidagi 7-o'rta umumta'lim maktabida o'qituvchi (1996), BuxDU o'zbek tilshunosligi kafedrasida o'qituvchisi (2005), katta o'qituvchisi (2009), yillarda filologiya fakulteti ma'naviy ishlar bo'yicha dekan muovini (2010), o'zbek tilshunosligi kafedrasida mudiri (2011), 2009-yildan hozirgacha kafera dotsenti sifatida faoliyat ko'rsatmoqda.

2007-yilda “KTMD talablari asosida ta’lim maqsadini belgilashning didaktik asoslari” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan, pedagogika fanlari nomzodi. 200ga yaqin ilmiy maqola va tezislari, 1ta darslik, 3ta o’quv, 14ta metodik qo’llanma va 2ta monografiya muallifi.

Asosiy ishlari: Ona tili ta’limi maqsadining tadrijiy taraqqiyoti. O’quv qo’llanma. –Toshkent: O’zbekiston ME, 2019.–176 b. va b.

Astanova Gulnora Aminovna

1969-yilda Buxoro viloyati G’ijduvon shahrida tug’ilgan. O’zbek tilshunosligi kafedrasida o’qituvchisi (2009), filologiya fanlari nomzodi (2004), dotsent (2019), «Buxoro universiteti» gazetasi muharriri (2011), Toshkent davlat sharqshunoslik institutini (ToshDSH) 1993-yilda tugatgan. 2003-yilda «Minng bir kecha» asari o’zbekcha tarjimalarining qiyosiy tadqiqi» mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan. Hozirda «Ming bir kecha» asari badiiyyati » mazusida fan doktori(DSc) ustida ish olib bormoqda.

Asosiy ishlari: Arab tili darsligi.(ruschadan o’zbekchaga tarjima) «Fan» 2007-y.(B.Z.Xalidov)

«Ming bir kecha» asari o’zbekcha tarjimalarining qiyosiy tadqiqi» monografiya. «Fan» 2009.

«Manba va matn bilan ishlash masalalari» metodik qo’llanma. -Buxoro, 2012.

«Шедевры восточной литературы» monografiya. Lap Lambert.Riga, Latvija.2020.

Qilichev Bayramali Ergashevich

1971-yilda Buxoro shahrida tug’ilgan. O’zbek tilshunosligi kafedrasida o’qituvchisi (1994), filologiya fanlari nomzodi (1997), dotsent (2004). 1993- yilda BDUning ozbek filologiyasi fakultetini tugatgan. 1993-1996-yillarda kunduzgi aspiranturada tahsil olgan. 1997-yilda «O’zbek tilida partonimiya» mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan. 1999-yildan buyon «Leksikani sistem tadqiq etish muammosi» mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi ustida ishlamoqda.

Asosiy ishlari: O’zbek tilida partonimiya hodisasi // «Til va adabiyot ta’limi», T., 1996, 5-son, (77-79-b.).

Partonimik munosabatlarning lisoniy xususiyatlari // «O’zbek tili va adabiyoti», T., 1996, 6-son, (19-22-b.).

O’zbek tilida partonimiya // Toshkent, «Fan», 1996, (34 b.).

O’zbek tilida lug’aviy paradigma // Tilshunoslikning dolzarb masalalari (ilmiy maqolalar to’plami). T., «Universitet», 2002, (75-76-b.).

Partonimiyaning sinonimiya, giponimiya va graduonimiyaga munosabati // «O’zbek tili va adabiyoti», 2002, 5-son, (66-69-b.).

Nutq madaniyati va uslubi asoslari // Oliy va o’rta maxsus o’quv yurtlari talabalari ushchun o’quv qo’llanma. Toshkent, 2002, (114 b.). (E.Qilishev bilan hamkorlikda).

Til va nutqni farqlash xususida // «Til va adabiyot ta’limi», 2002, 6-son, (27-29-b.).

Qilichev B. Tilavova D. Olqish - xalq tili xazinasi. “Ilm-u adab jabhasida 60 yil (kafedraning 60 yilligiga bag’ishlangan ilmiy to’plam)” Buxoro, “Universitet”, 2005. 55-58-betlar.

Qilichev B., Muazzamova D. «Bosh» so’zi ma’nodoshligi asosidagi iboralar. “Ilm-u adab jabhasida 60 yil (kafedraning 60 yilligiga bag’ishlangan ilmiy to’plam)” Buxoro, “Universitet”, 2005. 58-59-betlar.

Qilichev B., Adizova N. Mantiqiylik - tushunarli nutq asosi. “Ilm-u adab jabhasida 60 yil (kafedraning 60 yilligiga bag’ishlangan ilmiy to’plam)” Buxoro, “Universitet”, 2005. 59-61-betlar.

Axmedov Atoulo Raxmatovich

1974-yil Jondor tumanida tug’lgan. O’zbek tilshunouligi kafedrasida o’qituvchisi (2002), filologiya fanlari nomzodi (2007), kafedra dotsenti (2008), o’quv ishlari bo’yicha dekan muovuni (2014), kafedra mudiri (2017). BuxDU ni 1999-yil tamomlagan. 2007-yilda “O’zbek adabiy tili tarixida o’g’uz unsur va ko’rinishlarining qo’llanilishi” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan.

Asosiy ishlari: O’zbek adabiy tilida o’g’uz ko’rinishlarining qo’llanilishi haqida. O’TA, 2000, 6-son.

“Boburnoma”da o’g’uz ko’rinishlari. O’TA, 2001, 1-son.

Hozir ijodida o’g’uz ko’rinishlarining qo’llanilishi, BuzDU Ilmiy axborotlari, 2005, 3-son.

O’zbek va turk tillarining qiyosiy grammatikasi. Buxoro, “Durdona”, 2019

Toirova Guli Ibragimovna

1974-yilda Buxoro shahrida tug’lgan. 1996-yilda BDUning o’zbek filologiyasi fakultetini tamomlagan. 1997-2000-yillarda BDU aspiranturasida tahsil olgan.

BuxDU o’zbek tilshunosligi kafedrasida o’qituvchisi (1996), katta o’qituvchisi (2012), 2019-yildan hozirgacha kafera dotsenti sifatida faoliyat ko’rsatmoqda.

2017-yilda “O’zbek nutqiy muloqotida sistemaviylik va informativlik” mavzusidagi filologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori dissertatsiyasini himoya qilgan. 200ga yaqin ilmiy maqola va tezislari, 3 ta monografiya, 1 ta o’quv lug’ati, 1 ta elektron darslik, 2 ta o’quv qo’llanma, 15 ta metodik qo’llanma, 3 ta metodik ko’rsatma, 5 ta mualliflik guvohnomasi, 22 ta ilmiy-metodik maqola, O’zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 50 ta maqola, ulardan 12 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Asosiy ishlari: Нутқнинг этносоциопрагматик таҳлили асослари Ўқув қўлланма. 2007, Самарқанд, (Сафаров Ш.)

Нутқий мулоқот ситуатив прагматик система сифатида. Монография.- Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2013. 136-б.

Нутқий мулоқот ва ёшлар нутқидаги луғавий бирликлар. Монография. - Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2015. 112-б.

Актуальные проблемы языкознания. Халқаро монография. Германия: “LAMBERT Academic Publishing” номли халқаро нашриёт. 2019, -157 с.

Hozirgi o'zbek tili. Morfologiya. O'quv qo'llanma Toshkent: "Navro'z" , 2019.(M.Abuzalova)

Asadov To'lqin Hamroyevich

1975-yilda Jondor tumanida tug'ilgan. 1993-1998-yillarda Buxoro davlat universiteti o'zbek filologiyasi fakultetida tahsil olgan. 2001-2004-yillarda universitetning aspirantura bo'limida o'qigan. «O'zbek tilida ravishning so'z turkumlari tizimidagi o'rni» mavzusida ilmiy tadqiqot olib boryapti.

Asosiy ishlari: 6-sinf uchun ravish turkumi yuzasidan mashqlar to'plami. Buxoro, 2003.

Ona tili darsliklarida ma'naviy qadriyatlarning aks etishi. O'zbek tili doimiy anjumani VII yig'ini materiallari. Toshkent, 2003.

O'quvchilarga ravish haqida ilk tushuncha berish. "Til va adabiyot ta'limi", T., 2003, 5-son.

Ravish so'z turkumi va uning tarkibi haqida. "Buxoro universiteti ilmiy axborotlari", 2004, 1-son.

O'zbek tilining izohli lug'ati» da ravishlarning ajratilishi hamda izohlanishi. "Buxoro universiteti ilmiy axborotlari", 2004, 3-son.

Asadov T. Ravish va sifatning o'zaro munosabati. "Ilm-u adab jabhasida 60 yil (kafedraning 60 yilligiga bag'ishlangan ilmiy to'plam)" Buxoro, "Universitet", 2005. 36-39-betlar.

Asadov T. Ravish so'z turkumi va uning tarkibi haqida. «O'zbek tili va adabiyoti» jurnali, 2005, 2-son, 53-55-betlar.

Asadov T. Ravishlardagi soddalanish hodisasi xususida. «Til va adabiyot ta'limi» jurnali, 2005, 1-son, 26-28-betlar.

Xamroyeva Shahlo Mirdjonovna

1981-yilda Buxoro shahrida tug'ilgan. Buxoro davlat universitetini tamomlagan (2002); magistr (2005). Buxoro shahar 10-umumta'lim maktabi o'qituvchisi (2002-2003), BuxDU qoshidagi akademik litsey o'qituvchisi (2007), Buxoro davlat universiteti o'zbek tilshunosligi kafedrasida o'qituvchisi (2018); Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyot universiteti doktoranti (DSc) (2020). "O'zbek tili mualliflik korpusini tuzishning lingvistik asoslari" mavzusida filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasini yoqlagan (2018).

Ilmiy qiziqishlari: kompyuter lingvistikasi, amaliy tilshunoslik, morfologiya.

G'aybullayeva Nafisa Izzatullayevna

1983-yilda Buxoro tumanida tug'ilgan. O'zbek tilshunosligi kafedrasida o'qituvchisi (2017), filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktrori (PhD) (2020). BDUni 2003-yil bakalavriyat, 2010-yil magistratura yo'nalishlarini tugatgan.

"O'zbek tilida tibbiy evfemizmlar" mavzusida filologiya fanlari bo'yicha falsafa dokrtori (PhD)ilmiy darajasini yoqlagan.

Asosiy ishlari:

1. Ўзбек тили тиббий эвфемизмларининг қисқача изоҳли луғати. – Тошкент: академнашр, 2019.– 76 б.

2. Medical Euphemisms' Ways of Formation and their Attitude towards Related Events // International Journal of Recent Technology and Engineering (IJRTE) ISSN: 2277– 3878 // Volume– 8 // Issue– 3S // October 2019 – P.494-497 // IJRTE is a Scopus Journal

3. Classification of thematic groups of medical euphemeralism // European Journal of Business &Social Sciences. ISSN: 2235-767X. Volume 07 Issue 05 Volume May. 2019.– P. 1721-1733. Impact Factor 6,76

4. The usage of euphemisms in the speech of doctors// International journal of research in humanities, Arts and literature (IMPACT:IJHAL), 2018. – P.525- 532. IMPACT Factor. 3.7943

FOR AUTHOR USE ONLY

АДАБИЁТЛАР

1. Каримов И.А. Истиклол ва маънавият. -Т., «Ўзбекистон», 1994.
2. Мутъий И., Усмонов М. Маҳмуд Қошғарийнинг ватани, ҳаёти ва мозори тўғрисида. «ЎТА», 1990, 3-сон.
3. Нурмонов А., Маҳмудов Н. Ўзбек тилшунослиги тарихи.Т., Камолот-Қатортол, 2000. 1-китоб.
4. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи .Т.,Ўзбекистон, 2002. 2-китоб.
5. Умаров Э.Эски ўзбек лугатлари. Т., 1992.
6. Узоқов Ҳ. Ўзбек тилшунослари. -Т., «Ўқитувчи», 1972.
7. Рустамов А. М.Замахшарий. Т., 1980.
8. Тожиёв Ё. Ўзбек тилшунослиги тарихи. Маърузалар матни, Т., Университет, 2000.
9. Шукуров Ш., Базарова Д.Узбекское советское языкознание. -Т., 1986.
- 10.Қосимов Н., Мадвалиев А., Маҳкамов Н. Олим Усмон ва ўзбек тилшунослиги. «ЎТА», 2002, 6-сон.
11. Қўчқортёев И., Исабеков Б. Туркий филологияга кириш. Т., 1984.
- 12.Хайруллаев М.Ўрта Осиёда илк уйғониш даври маданияти. Т., 1994.
13. Курбонова М.А.Фитрат ва ўзбек тилшунослиги. Т., 1997.
14. Ҳасанов Ҳ. М.Қошғарий. -Т., 1969.
- 15.Ўринбоев Б., Т.Қурбонов. Ўзбек тилшунослиги тарихи. Ўқув қўлланма, Самарқанд, 2006.
16. «Ўзбек тили ва адабиёти» журналидаги тегишли мақолалар. (1984, 2-4; 1982, 5-6; 1985, 1; 1996, 3; 1972, 1-2; 1987, 5-сон ва бошқалар.

INTERNET saytlari

1. Республика Ўзбекистан <http://www.gov.uz>
2. УзНУ <http://www.nuu.uz>
3. Открытая электронная библиотека <http://orel.rsl.ru>
4. Разная информация <http://www.bilimdon.uz>
5. www.ziyo.net
6. www.bilim.uz

FOR AUTHOR USE ONLY

FOR AUTHOR USE ONLY

**More
Books!**

yes
I want morebooks!

Buy your books fast and straightforward online - at one of world's fastest growing online book stores! Environmentally sound due to Print-on-Demand technologies.

Buy your books online at
www.morebooks.shop

Kaufen Sie Ihre Bücher schnell und unkompliziert online – auf einer der am schnellsten wachsenden Buchhandelsplattformen weltweit! Dank Print-On-Demand umwelt- und ressourcenschonend produziert.

Bücher schneller online kaufen
www.morebooks.shop

KS OmniScriptum Publishing
Brivibas gatve 197
LV-1039 Riga, Latvia
Telefax: +371 686 204 55

info@omniscryptum.com
www.omniscryptum.com

OMNIScriptum



FOR AUTHOR USE ONLY

FOR AUTHOR USE ONLY

FOR AUTHOR USE ONLY